ANDIJON SHAHAR ICHIDAGI AVTOBUS YO'NALISHLARI MAVJUD MUAMMOLAR VA KAMCHILIKLARI

Madaminova Muqaddasxon Odiljon qizi
Andijon davlat texnika instituti
"Avtomobilsozlik va transport" fakulteti
"Transport logistikasi" yo'nalishi
K-46-22-guruh talabasi
E-mail: muqaddasmadaminova008@gmail.com
Doi: https://doi.org/10.5281/zenodo.20225282
+998508902366

Annotatsiya. Mazkur maqolada Andijon shahri ichidagi avtobus yo'nalishlarining bugungi holati, mavjud muammolari va kamchiliklari tahlil qilinadi. Shuningdek, jamoat transporti tizimida uchrayotgan asosiy muammolar — avtobuslar sonining yetarli emasligi, qatnov vaqtidagi noqulayliklar, yo'lovchilarga xizmat ko'rsatish sifati pastligi hamda transport infratuzilmasidagi kamchiliklar haqida fikr yuritiladi. Maqola davomida mazkur muammolarni bartaraf etish bo'yicha taklif va tavsiyalar ham keltiriladi.

Kalit so'zlar: avtobus yo'nalishlari, transport infratuzilmasi, yo'lovchi tashish, Andijon shahri, qatnov muammolari, transport tizimi, avtobus bekatlari.

Kirish. Andijon shahri aholisi sonining ortib borishi, urbanizatsiya jarayonining jadallashuvi hamda kundalik qatnov ehtiyojining oshishi jamoat transporti tizimiga katta yuklama bermoqda. Shaharda avtobus va mikroavtobus yo'nalishlari aholiga xizmat ko'rsatib kelayotgan bo'lsa-da, tizimda bir qator muammolar va kamchiliklar mavjud. Ayniqsa, avtobuslar harakat intervalining barqaror emasligi, ayrim yo'nalishlarda transport vositalarining yetishmasligi, bekat infratuzilmasining talab darajasida emasligi aholiga noqulaylik tug'dirmoqda.

Bugungi kunda Andijon shahrida avtobuslar bilan bir qatorda mikroavtobuslar ham faoliyat yuritadi. Ammo ko'plab yo'nalishlarda eski va texnik jihatdan eskirgan transport vositalari xizmat ko'rsatmoqda. Bu esa yo'lovchilar xavfsizligi va qulayligiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Ayniqsa yoz va qish mavsumida avtobuslarning ventilyatsiya hamda isitish tizimlari yetarli darajada ishlamasligi kuzatiladi. Natijada aholining shaxsiy avtomobillardan foydalanishi ortib, shahar ko'chalarida tirbandlik kuchaymoqda. Yana bir muhim muammo - qatnov jadvaliga to'liq amal qilinmasligidir. Ayrim avtobuslar belgilangan vaqtda kelmasligi yoki uzoq vaqt interval bilan harakatlanishi sababli yo'lovchilar bekatlarda ko'p kutishga majbur bo'lmoqda. Bu ayniqsa ertalab va kechqurun ish va o'qish vaqtlarida yaqqol seziladi. Shuningdek, haydovchilarning bekatlardan tashqari joylarda yo'lovchi tushirishi yoki chiqarishi yo'l harakati xavfsizligiga salbiy ta'sir qiladi. Shu sababli keyingi yillarda shaharda "brutto-shartnoma" tizimini joriy etish orqali qatnov sifatini yaxshilash choralari ko'rilmoqda.

Andijon shahrida elektron to'lov tizimining joriy etilishi transport tizimini modernizatsiya qilishdagi muhim qadam hisoblanadi. Hozirda ayrim yo'nalishlarda ATTO transport kartalari orqali to'lov qilish imkoniyati yaratilgan. Biroq barcha avtobus yo'nalishlarida ushbu tizim to'liq joriy qilinmaganligi sababli naqd pul muomalasi hali ham saqlanib qolmoqda. Bu esa ayrim hollarda yo'lkira hisobida noaniqliklar va vaqt yo'qotilishiga olib keladi. Shuningdek, avtobus bekatlarining yetarli emasligi yoki zamonaviy talablarga javob bermasligi ham dolzarb muammolardan biridir. Ba'zi bekatlarda yo'lovchilar uchun o'rindiqlar, elektron jadval yoki yomg'irdan himoyalovchi soyabonlar mavjud emas. Nogironligi bo'lgan shaxslar uchun moslashtirilgan infratuzilmaning yetarli emasligi ham jamoat transportidan foydalanishda qiyinchilik tug'diradi.

Kelgusida Andijon shahar jamoat transporti tizimini rivojlantirish uchun yangi elektrobuslar xarid qilish, avtobus yo'laklarini tashkil etish, elektron to'lov tizimini to'liq joriy qilish va barcha yo'nalishlarni raqamlashtirish muhim ahamiyatga ega. 2025–2026-yillarga mo'ljallangan rejalar asosida shaharda yangi elektrobuslar olib kelinishi va bekatlar rekonstruksiya qilinishi rejalashtirilgan. Bu esa ekologik toza va qulay transport tizimini yaratishga xizmat qiladi.

Bugungi kunda shahar transport tizimi ko‘p darajali tuzilishga ega bo‘lib, u avtobus yo‘nalishlari, yo‘nalishli mikroavtobuslar ("Damas") va taksi xizmatlarini o‘z ichiga oladi. 2025–2026-yillar mobaynida shaharda transport infratuzilmasini tubdan modernizatsiya qilish bo‘yicha keng ko‘lamli islohotlar amalga oshirilmoqda. Avvalo, shaharda aholi sonining ortib borishi va shaxsiy avtomobillar sonining ko‘payishi yo‘llarda tirbandliklarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa jamoat transporti vositalarining harakat tezligini pasaytirib, ularning belgilangan vaqtda harakatlanishiga salbiy ta’sir ko‘rsatib kelmoqda. Bundan tashqari, shahar markaziy ko‘chalarida kichik sig‘imli (Damas) transport vositalarining me’yordan ortiqligi tirbandliklarni keltirib chiqarmoqda. Bu esa yo‘llarning o‘tkazuvchanlik qobiliyatini 30-40% gacha pasaytiradi. Bundan tashqari avtobuslar harakati jadvali ustidan nazoratning yetarli emasligi muamolardan biri hisoblanadi. Natijada ayrim yo‘nalishlarda transport vositalari uzoq kutishga majbur qiladi, boshqa paytlarda esa ortiqcha transport yig‘ilib qolishiga sabab bo’ladi. Shuningdek bekatlarning yo’lovchilar uchun noqulayligi ,axborot tablolarining yo’qligi va intellektul transport tizimlarining to’liq joriy etilmaganligi tizimning asosiy kamchiliklaridan biri hisoblanadi. Bu esa yo‘lovchilar uchun noqulaylik tug‘diradi va transport tizimining samaradorligini pasayishiga olib keladi.

So‘nggi yillarda Andijon shahrida transport xizmatlari sifati sezilarli darajada yaxshilandi. Shaharga zamonaviy, ekologik toza (metan va elektr energiyasida ishlovchi) Asia Star va Zhongtong rusumli katta sig‘imli avtobuslar olib kelindi. Bu avtobuslar konditsioner tizimi va nogironligi bo‘lgan shaxslar uchun maxsus panduslar bilan jihozlangan. Bu avtobuslar shaharda "reja"tizimidan voz kechilib, tashuvchilar bilan "Brutto-shartnoma" tuzishga o‘tildi. Bunda tadbirkor tushum uchun emas, balki bosib o‘tilgan masofa va xizmat sifati (vaqtga rioya qilish) uchun haq olinadigan bo’ldi. Bundan tashqari ATTO yagona to‘lov tizimi va GPS monitoring joriy etildi. Yo‘lovchilar "MyBus" kabi ilovalar orqali transport harakatini real vaqtda kuzatish imkoniyatiga ega bo‘ldilar. Bu tizim yo’lovchilar uchun juda foydali bo’ldi.

Andijon shahridagi 1-, 222- va 75-yo‘nalishli avtobuslar shaharning asosiy yo‘nalishlari hisoblanadi . Ular orqali ko‘plab yo‘lovchilar harakatlanadi. Biroq ushbu yo‘nalishlarda bir qator muammolar va kamchiliklar mavjud bo‘lib, ular transport tizimining samaradorligiga salbiy ta’sir ko‘rsatib kelmoqda.

75-yo‘nalishning uzunligi katta muammo hisoblanadi. U taxminan 19 kilometrga yaqin masofani bosib o‘tadi va 40 dan ortiq bekatni qamrab oladi. Bu esa avtobusning bir aylanishi uchun ko‘p vaqt ketishiga olib keladi. Natijada avtobuslar tez-tez kechikishadi , yo‘lovchilar esa uzoq vaqt kutishga majbur bo‘ladi.. Ushbu yo‘nalishda boshqa yo‘nalishlarga nisbatan kamroq avtobus qatnaydi. Natijada ayniqsa ertalab va kechqurun tig‘iz vaqtlarda avtobuslar haddan tashqari to‘lib ketadi. Bu esa yo‘lovchilar uchun noqulaylik tug‘diradi va ba’zan xavfsizlikka ham salbiy ta’sir qiladi.,Intervalning tartibsizligi. 75-yo‘nalish avtobuslari bir xil vaqt oralig‘ida harakatlanmaydi. Ba’zan uzoq vaqt avtobus kelmaydi, keyin esa ketma-ket bir necha avtobus kelib qoladi. Bu holat transport tizimining yaxshi boshqarilmayotganini ko‘rsatadi. Shuningdek, ushbu yo‘nalish shaharning markaziy va gavjum ko‘chalaridan o‘tadi. Shu sababli avtobuslar ko‘pincha tirbandlikka tushib qoladi. Maxsus avtobus yo‘laklari yo‘qligi sababli ular oddiy avtomobillar bilan bir xil oqimda harakatlanadi va bu harakat tezligini keskin pasayishiga olib keladi. Bundan tashqari, marshrutkalar (Damas) bilan muvofiqlik yo‘qligi ham muammo hisoblanadi. Ular ko‘pincha aynan shu yo‘nalish bo‘ylab harakatlanib, yo‘lovchilarni avtobusdan oldin olib ketadi. Natijada avtobuslar samaradorligi pasayadi va yo‘llarda tartibsizlik yuzaga keladi. Bekatlar bilan bog‘liq muammolar ham mavjud. Ba’zi bekatlar zamonaviy emas yoki yetarli darajada jihozlanmagan. Ayrim holatlarda avtobuslar bekatdan tashqarida to‘xtaydi, bu esa yo‘lovchilar uchun noqulaylik tug‘diradi.

Andijon shahridagi 1-yo‘nalish avtobusi shaharning eng muhim va eng ko‘p foydalaniladigan yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Shu sababli unda ham bir qator asosiy muammolar va kamchiliklar mavjud. Asosiy muamolardan biri avtobuslar harakat intervalining tartibsizligidir. 1-yo‘nalishda avtobuslar bir xil vaqt oralig‘ida kelmaydi. Ba’zan uzoq vaqt avtobus kelmaydi, keyin esa ketma-ket bir nechta avtobus bir joyga yig‘ilib keladi. Bu holat yo‘lovchilar uchun noqulaylik tug‘diradi va transport tizimining ishonchliligini pasayishiga olib keladi .Yana bir muammo tirbandlikka kuchli bog‘liqlikdir. 1-yo‘nalish shaharning asosiy va gavjum ko‘chalaridan o‘tadi. Shu sababli u ko‘pincha avtomobil

tirbandligiga tushib qoladi. Maxsus avtobus yo‘laklari yetarli emasligi sababli avtobuslar umumiy transport oqimida harakatlanadi va bu ularning tezligini sezilarli darajada kamaytiradi. huningdek, bekatlar infratuzilmasi ham to‘liq rivojlanmagan. Ayrim bekatlar zamonaviy jihozlanmagan, yo‘lovchilar uchun qulay sharoitlar yetarli emas. Ba’zi joylarda avtobuslar belgilangan bekatdan tashqarida to‘xtashiga to‘g‘ri keladi.

Andijon shahridagi 22-yo‘nalish avtobusi ham shahar jamoat transport tizimining muhim qismlaridan biri hisoblanadi. Ushbu yo‘nalishda yo‘lovchilar oqimi nisbatan yuqori bo‘lgani uchun unda bir qator muammolar va kamchiliklar kuzatiladi. 22-yo‘nalishdagi asosiy muammolardan biri avtobuslar harakat intervalining tartibsizligidir va avtobuslar sonining yetarli emasligidir. Ayniqsa tig‘iz vaqtlarda (ertalab va kechqurun) 22-yo‘nalishda avtobuslar yetishmaydi. Natijada avtobuslar haddan tashqari to‘lib ketadi va yo‘lovchilar uchun noqulay sharoitlar yuzaga keladi. Yana bir muhim kamchilik — yo‘nalishning tirbandlikka bog‘liqligidir. Asosiy muamolardan ya’na biri yo’llar tamirtalabligidir. 22-yo‘nalish shaharning gavjum ko‘chalaridan o‘tadi. Shu sababli u tez-tez yo‘l tirbandligiga tushib qoladi va bu avtobuslarning jadval bo‘yicha harakatlanishiga salbiy ta’sir qiladi.

Umuman olganda Andijon shaxridagi jamoat transportida ya’ni avtobuslar yo’nalishlarida asosiy muamolar va kamchiliklar:

Jamoat transportining yetarlicha tashkil etilmaganligi sababli tirbandliklar yuzaga keladi natijada aholi transport uchun shaxsiy avtomobillaridan foydalanadi.

1. Ba’zi yo’llar tamirtalabligi
2. .Aholi hali ham to’liq elektron to’lov tizimiga o’tmaganligi
3. Avtobuslarda texnik nosozliklar va ekologik jihati
4. Ba’zi yo’nalishlarda avtobuslar yetishmasligi
5. Ba’zi yo’nalishlarda transport vositalarining haddan tashqari zichligi , ayrim hududlarda esa yo’lovchilarga bo’lgan talabning qondirilmaganligi;
6. Maxsus avtobus yo’laklari yetarli emasligi
7. Bekatlar infratuzilmasi ham to’liq rivojlanmaganligi
8. Quyosh panellari bilan ishlovchi , wi-fi va elektron tablo bilan jihozlanmagan bekatlar tarmog’i yo’qligi ya’ni aqilli bekatlar yo’qligi
9. Avtobuslarning bekatdan tashqarida to’xtashlariga to’g’ri kelishi
10. Ayrim haydovchilarning muomala madaniyati yaxshi emasligi
11. Interval buzilishi
12. Damaslar ulushining yuqoriligi
13. Ko’cha yo’l tarmoqlarida jamoat transporti ustuvorligini beruvchi axborot ishora belgilari sonini orttirish kabi bir nechta muamolar va kamchiliklari mavjuddir.

Xulosa. Xulosa qilib aytganda, Andijon shahridagi avtobus yo‘nalishlari aholi uchun muhim transport vositasi hisoblanadi. Biroq tizimda avtobuslar yetishmasligi, qatnov intervalining uzoqligi, texnik eskirgan transport vositalari, bekat infratuzilmasining sust rivojlanganligi va elektron tizimlarning to‘liq joriy etilmaganligi kabi muammolar mavjud. So‘nggi yillarda amalga oshirilayotgan islohotlar ushbu kamchiliklarni bartaraf etishga qaratilgan bo‘lsa-da, jamoat transporti sifatini yanada oshirish uchun zamonaviy boshqaruv tizimlari, yangi avtobuslar va raqamli texnologiyalarni keng joriy etish zarur hisoblanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasi Transport vazirligi ma’lumotlari.
2. Andijon viloyati transport boshqarmasi rasmiy sayti.
3. “Andijon shahar jamoat transportida avtomatlashtirilgan to‘lov tizimi ishga tushirildi” maqolasi.
4. “Andijon shahrida jamoat transporti brutto-shartnomalariga o‘tkazilmoqda” maqolasi.
5. Andijon viloyati hokimligi portalidagi “Jamoat transporti haqida ma’lumot”.
6. “Getting Around Andijon” transport sharhi.
7. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining transport va raqamlashtirish sohasiga oid qarorlari hamda normativ hujjatlari.